

## TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI, MUAMMO VA YECHIMLAR

**Ashurova Yulduz Zoirovna**

*Buxoro viloyati Romitan tumani 22 - umumiy o'rta ta'lif mablagi psixolog*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif sohasidagi tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash hamda ishlash usullari, yo'llari va muammo va yechimlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagog, tarbiya, ta'lif, tarbiyasi og'ir, muloqot, tarbiya, dunyoqarash, tajriba, mulohaza.

### **KIRISH**

Maktab ijtimoiy pedagogikasining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir bolalar hisoblanadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo'ladi va oxir oqibat o'zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'linadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to'garagi bo'lishi mumkin. Ota-onada o'z farzandiga yosh bolaga bo'lganday qarashadi, bola esa bu g'amxo'rlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi.

Tarbiyasi og'ir bolalar jismoniy jihatdan sog'-salomatdirlar, biroq ularning ta'lif-tarbiyasi buzilgan. Ular o'z tengdoshlaridan o'qishda ortda qoladilar, chunki ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan. Ular o'zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o'zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug'ullana olishmaydi. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-onada bilan nizolashadilar. Shu kabi jarayonlar tufayli ular maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishi, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilaigan huquqbazarliklar sodir etadigan xavfli shaxsga aylanishadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“Tarbiyasi og’ir” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S Vigotskiy fikricha, “og’ir” bola hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma’lum bir qismi intizomsiz, qo’pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o’zgartirish, ularga ba’zi huquqlarini berish yo’li bilan ularga ta’sir o’tkazish mumkin. Shuni aytish lozimki, “tarbiyasi og’ir” bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o’qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

Tarbiya jarayoning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar tarbiyal bo’lim – bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iboratdir: Bunday nazorat inson yomon hatti-harakatlarini bajarmaslik imkoniyatini beradi.

Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg’ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo’ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvini o’rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: Bola o’zini egosentrik emas, balki tarbiyal tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag’batlantirilishi kerak?

Tarbiya o’z muhitiga ko’ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishdir. Agar ta’lim shaxsning ongini shakllantirish bo’lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta’sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos.

Konfutsiy “Eskini o’zlashtirgan, yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo’la oladi.” degan edi. Hamma kishilar ham bir xilda bo’lmaydi, shuningdek, oilalar ham turlichadir. Shubhasiz bolalar ham bir biriga o’xshamaydi. Bu tabiiy hol. Lekin ko’pincha kattalar buni unutib qo’yadilar, o’zlaricha qandaydir umumiy tavsiyalardan yordam ko’rishga moyil bo’ladilar va bunda: “bola... bajarishi kerak”, “bolaga mumkin emas” kabi so’zlarni ishlatadilar. Bu esa xato. Bola avval boshidanoq hech narsani bajarishga majbur emas, unga hech narsa joiz ham emas. Aksincha, kattalar bolaning meyorida rivojlanishi uchun sharoit yaratishlari, uni kishilar orasida yashashga o’rgatishlari, ularning his-tuyg’ularini, xohish-istiklarini va ishlarini tushunishlari lozim. Vaqt o’tishi bilan, payti kelganda uning o’zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nima qilishga majburligini, kimning

oldida qarzdorligini va bu qarzlarni boshqa kishilarga o’z ota-onalariga, do’stlariga va nihoyat, o’z bolalariga nisbatan mexr-muhabbat, mexribonligi bilan uzishni tushunib oladi.

## MUHOKAMA

Ta’lim sohasida tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar tarbiyasi mavzusi benihoya keng, ko‘pqirrali, ko‘p qatlamlı va oddiy odamlar tomonidan qabul qilinishi juda qiyin. Tarbiyasi og‘ir bo‘lgan bolalarning ota-onalariga muammolarini hal qilishda yordam beruvchi asosiy qoidalar zarur bo‘ladi. Bunday qoidalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Bola o‘zini yaxshi tutgan paytlari har doim uni ko‘proq maqtang. Bu uning quvonch bilan har doim siz ma’qullaganingizdek o‘zini tutishga harakat qilishiga yordam beradi.
- Agar bola injiqlik qilsa va o‘zini noto‘g‘ri tutsa bolaning shaxsini muhokama qilmang! Uning aynan shu lahzadagi xulqini muhokama qiling. Shunday qilsangiz bola o‘zini hurmat qilishlarini, yaxshi ko‘rishlarini, lekin hozirgi qilgan ishi noto‘g‘ri ekanligini tushunadi.
- Har doim farzandingizning yoshini va rivojlanishini hisobga oling.
- Boladan so‘rayotgan talablaringiz mantiqiy bo‘lishi kerak.
- Nojo‘ya ish uchun beriladigan jazolarning vaqtłari izchil bo‘lishi kerak.

## NATIJA

Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarning uchta asosiy guruhini va tegishli ravishda ular bilan olib boriladiga tarbiyaviy ishning uch yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishga harakat qilamiz. Birinchi guruh – tarbiyasi og‘irligini “o’tish davri” ning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan o‘quvchilar. Hayoti va tarbiyasining noqulay sharoitlarida ba’zi bolalarda krizis, ya’ni jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishdagi jiddiy o’zgarishlar davrida qiyinchiliklar paydo bo‘lishini sezish qiyin emas. Bu davrda bola va o’smirning rivojlanishi ikki xususiyat: intensiv va notekis rivojlanish bilan harakterlanadi. Mana shuning uchun ham bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishida to’xtalish, xatto nomutanosibliklar bo‘lishi mumkin. Shuni qo’shimcha qilish kerakki, jismoniy rivojlanishidagi chetga chiqishlar psixik omil sifatida ham namoyon bo‘ladi va jismoniy nosog’lom bolalarning emotSIONAL holatiga ta’sir etadi. Bunday bolalarning psixik

rivojlanishida ham chetga chiqish kuzatiladi: psixikaningayrim funksiyalari notejis rivojlanadi yoki rivojlanishda orqaga qoladi, surunkali psixik kasalliklar, yomon irsiyat, nevroz, psixozisteriya xastaligi, nevrasteniya va hakozo. Bularning hammasi bolalarning xulq-atvorida tajovuskorlik, dag'allik, qo'pollik, urishqoqlik, o'y-hayolga botish, loqayd bo'lib qolish, beparvolik paydo bo'lishida ifodalanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda , xilma-xil voqeа hodisalardan turlicha emotsiyonal ta'sirlanish; voqeа va hodisalarni turli xilda idrok qilish; turli xildagi jazava xolati. Shuningdek g'amginlik, xafalik, loqaydlik, kek saqlash, darg'azab bo'lish, yig'loqilik, o'zining emotsiyonal holatini boshqara olmaslik, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining betayinligi, yaqin kishilarga nisbatan beparvolik, mehr-muhabbat va yaqinlik tuyg'usining yo'qligi.Yuqorida ko'rsatib o'tilgan chetga chiqish turlari bolalarning insonning rivojlanishiga, uning boshqa kishilar bilan bo'ladigan aloqalariga, o'smirlik yoshiga xos bo'lган xilma-xil faoliyat turlariga kirishishning muvaffaqiyatli yoki muvofaqqiyatsiz bo'lishiga ta'sir etadi. Bu chetga chiqishlarning paydo bo'lishiga asos bor. Oilada ota yoki onaning yo'lqligi, bolaning yolg'iz ota yoki yolg'iz onaning tarbiyalashi, tashqi o'quv-tarbiya muassasalari ta'sir yo'qligi bunday sabablardan hisoblanadi. Bularidan tashqari tarbiyaviy ta'sirning omillari: otaonalarning ichkilikbozligi va axloqsizligi, madaniy muhitning yo'qligi, bolalarni huquq normalariga zid faoliyatga jalb etish, ularni huquqlarini poymol qilish, bolalarga jismoniy va psixik zulm o'tkazish, tengdoshlarining salbiy ta'siri, muktab va oiladagi "tarbiyaning g'ayri pedagogik" metodlari ham bor.O'quvchilarni pedagogik qarovsizlik sabablarini xali yosh, sharoitlar yomon, axir odam tarbiya ko'rmay o'sadida qabilidagi ochiq-oydin talqin qilishdan ogoh bo'lish qilish lozim. Hamma narsa bolaning muxitining ijobiy va salbiy ta'sirlarini qanday idrok qilishga bog'liq. G.A.Fortunatov shunday deb yozgan edi: "Bolaning harakteri faqat muhitning ta'siri ostida rivojlanmaydi, balki bolaning munosabatlari o'z muhitida qanday shakllanganligi, u shu muhitda nimalarga qiziqishiga ham bog'liq bo'ladi... Agar bir bolada ichkilikbozlik, beadablilik va sho'xliklar qiziqish uyg'otsa, boshqasida ular qo'rquv, vahima, jirkanish yoki nafrat va qarshilik xissini uyg'otish mumkin".

Pedagogik qarovsiz qarovsiz bolalar va o'smirlarning belgilarini ancha bat afsil ta'riflagach, shuni ta'kidlaymanki, bu tarbiyasi qiyinchilikning ancha murakkab tipi. Bolalar bu nuqsonni yengib o'tish uchun maxsus yondashuvga, aynan qayta tarbiyalashga ehtiyoj sezadilar. Bu jarayon esa bola shaxsining uch sohasiga: ongiga, axloqiga va emotsiyal-irodaviy sohalariga uzoq vaqt davomida pedagogik ta'sir ko'rsatishni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaakonserni. 1997-yil.
- 2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T:，“Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil.
3. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (darslik).2018
4. Kayumova M., Xakimova M., To'rabetkov F. Ta'lim va o'rganish nazariyasi //Архив научных исследований. – 2022. – Т.
5. Kayumova, Mekhribonu, Muhabbat Xakimova, and Farxod To'rabetkov. "Ta'lim va o'rganish nazariyasi." Архив научных исследований 2.1 4. Kayumova, M., Xakimova, M., & To'rabetkov, F. (2022).